

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA NASIBA KENJAYEVNA**

**PROFESSOR VLADIMIR GRIGORYEVICH GAKNING LINGVISTIK  
MEROSI: LISONIY-KOGNITIV TAHLIL**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on filological sciences**

**Ruziyeva Nasiba Kenjayevna**

Professor Vladimir Grigoryevich Gakning lingvistik merosi:  
lisoniy-kognitiv tahlil ..... 3

**Рузиева Насиба Кенжаевна**

Лингвистическое наследие профессора Владимира Григорьевича Гака:  
лингво-когнитивный анализ ..... 23

**Ruzieva Nasiba Kenjaevna**

The linguistic heritage of Professor Vladimir Grigorievich Gak:  
linguistic-cognitive analysis ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 50

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA NASIBA KENJAYEVNA**

**PROFESSOR VLADIMIR GRIGORYEVICH GAKNING LINGVISTIK  
MEROSI: LISONIY-KOGNITIV TAHLIL**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4470 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Mirzayev Ibodulla Kamalovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Qarshibayeva Uljan Davirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Qulmamatov Do'smamat Sattarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "22" may soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil) 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (61860-raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "2" may kunida tarqatildi.  
(2025-yil "2" may daqi 18 raqamli reyestr bayonnomasi)



**N.Z.Nasrullayeva**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
kotiibi, filologiya fanlari doktori (PhD),  
dotsent

**D.A.Kiselyov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda lingvistik ta'limotlar tarixiga, ularning fundamental asosini ochib berishga, turli tillarning qiyoslash natijasida vujudga keladigan nazariy konsepsiyalarni ilgari surgan olimlar ijodiga qiziqish ortib bormoqda. Shu bois fransuz orfografiyasiga tizimli sinxron yondashuv bilan birinchi nazariyani taqdim etgan, fransuz tilining fundamental nazariy grammatikasini yagona nazariy "funktional yondashuv" pozitsiyasidan bir tilni tavsiflovchi grammatikaning barcha muammolarini tizimlashtirish, tushuntirishdagi birinchi tajriba sifatida qaragan, tilshunoslikning deyarli barcha muammolari, umumiy va roman tilshunosligi, qiyosiy tipologiya, grammatika, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, orfografiya, tarjimashunoslik, stilistika, til o'qitish metodikasi bilan jiddiy shug'ullangan hamda o'zidan juda katta ilmiy meros qoldirgan olim V.G.Gak ijodidagi lisoniy belgi asimmetriyasi, tilning voqelikka munosabati, sintaksis kabi o'ziga xos nazariy qarashlarini aniqlash, xulosalar chiqarish tilshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Dunyo tilshunosligida V.G.Gak til va tafakkur, til va voqelik, tilning tarixiy taraqqiyoti dialektikasi bilan bog'liq umumfalsafiy muammolar yechimiga qo'shgan hissasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Olim nominatsiya tipologiyasini ishlab chiqdi, tilning semantik hodisalarini o'zaro dialektik bog'langan ikki-semasiologik va onomasiologik nuqtai nazardan izchil o'rgandi. Uning "Fransuz orfografiyasi" asari, orfografiyaga nazariy va tizimli yondashgan dastlabki asar hisoblanadi. "Gapning leksik-grammatik qurilishi muammolari" nomli doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan tarjima ilmi va amaliyotiga doir g'oyalari jahon, xususan, fransuz va rus tillari grammatikasi uchun metodologik asos vazifasini bajarmoqda. V.G.Gakning "Fransuz orfografiyasi", "Fransuz tilining nazariy grammatikasi", "Fransuz va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi", "Leksikologiya va leksikografiya"ga doir asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, ulardagi tizimli tamoyilini aniqlash, boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish, nazariy konsepsiyalarni ko'rib chiqish bugungi tilshunoslik oldidagi zarur vazifalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ilm-ma'rifat, madaniyat va san'at, adabiyot hamda badiiy ijod sohalari rivoji borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "Ushbu sohada amalga oshirgan ishlarimiz jamiyatimizni yangi bosqichga ko'tarish, yuksak marralarni egallash, Uchinchi Renessans poydevorini qurishga xizmat qilayotgani hozirning o'zida yaqqol namoyon bo'lmoqda"<sup>1</sup>. Natijada o'zbek tilshunosligi keyingi taraqqiyotida mustahkam nazariy metodologik asos vazifasini bajarishi, qiyosiy tilshunoslikni yutuqlari, shu bilan bir qatorda kamchiliklarini bartaraf etish, unli va undosh tovushlar masalasidagi turli bahslarga yechim topish, jahon tilshunos olimlari ilgari surgan nazariy konsepsiyalarni tizimli o'rganish, lingvistik ta'limotlar tarixini yangidan yangi, hali kashf etilmagan qirralarini ochib berish omili ekanini xolis idrok etish tadqiqot mavzusining dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" nashriyati, 2023. – Б. 291.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 3775-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 5117-son Qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrda “Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”<sup>2</sup> mavzusidagi ma’ruzasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy va taraqqiyotida innovasion g‘oyalar tizimi va ularni amalga oshirish yo‘llarini shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** G‘arb tilshunosligida Bursill-Xal<sup>3</sup>, N.Mussallem<sup>4</sup>, E.F.Koerner<sup>5</sup>, R.J.Preston<sup>6</sup> bu borada alohida e‘tiborga loyiqdir, chunki ular tarixiy retrospeksiyada fransuz tilini o‘rganish va uni o‘qitishning nazariy va uslubiy asoslarini tizimli tahlil qilishni, shu jumladan V.G.Gakning umumiy tilshunoslik rivojlanishidagi hissasini yuqori baholashgan.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2018 –yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ -3775-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora- tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 5117-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrda “Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak ” mavzusidagi ma’ruzasi

<sup>3</sup> Bursill-Hall, G. Correlation of Didactics. Linguodidactics and methods of Teaching Foreign Languages // Canadian Journal of Linguistics. – 2019. – 10 (1). – P. 15–36 pp.

<sup>4</sup> Moussallem N. Innovative approaches to teach French grammar. – Paris: AST, 2020. – 280 p.

<sup>5</sup> Koerner E.F. Vladimir Gak: appraisals of life and work. – Amsterdam: John Benjamins, 2018. – 365 p.

<sup>6</sup> Preston R.J. Methodological Tools for Linguistic Description and Typology. – Washington, 2010. – 367 p.

Rossiyada V.G.Gakning lingvistik merosi F.M. Berezin<sup>7</sup>, A.V.Bondarko<sup>8</sup>, Yu.I.Gorbunov<sup>9</sup>, S.A.Krilov<sup>10</sup>, L.A.Muradova<sup>11</sup>, A.N.Tarasovalar<sup>12</sup> tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida umumiy tilshunoslik va fransuz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha V.G.Gak asarlarining ahamiyati aks ettirilgan. "Большая Советская Энциклопедия"si tahririyati a'zosi A.M.Proxorov tomonidan V.G.Gakning umumiy tilshunoslik va lingvistik tahlilning rivojlanishidagi hissasi batafsil bayon etilgan<sup>13</sup>. Bularning barchasi V.G.Gak lingvistik merosini hisobga olgan holda fransuz tilini o'rganishga zamonaviy yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarimizni keyinchalik ishlab chiqish uchun nazariy va uslubiy asos bo'ldi.

O'zbekistonda fransuz tili tadqiqi va ta'limiga bag'ishlangan ishlar nisbatan kam. M.B.Baxtiyoro<sup>14</sup> hamda N.X.Karimovalarning<sup>15</sup> tadqiqotlarida fransuz tilini o'rgatishda loyiha faoliyatidan foydalanish yuqori samara berishi mumkinligi qayd etilgan.

V.S.Mamatqosimova<sup>16</sup> o'z maqolasida fransuz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitish metodikasi masalalarini tahlil qilib, O'zbekistonda fransuz tili o'qitish metodikasini, motivlarni yaratish va o'quv materialini tanlash muammolariga hamda o'quvchilarning aqliy faoliyatini rag'batlantirish usullariga e'tiborini qaratadi. Uning tadqiqotida fransuz tilining leksik va grammatik komponentlarini o'zlashtirish, ko'p madaniyatli va ko'p tilli kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Z.U.Meliboeva<sup>17</sup> globallashuv sharoitida talabalarning dunyoqarashini rivojlantirishda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida fransuz tilini o'rganishning o'rni va ahamiyatini tahlil qilgan. G.M.Sarimsoqova<sup>18</sup> O'zbekistonda qiyosiy tilshunoslik fanining rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni tilshunos olimlarning ushbu yo'nalishdagi tegishli asarlari asosida tizimga solgan.

<sup>7</sup> Березин Ф.М. Советское языкознание XX века: задачи, проблемы, решения // Языковое бытие человека и этноса. – 2019. – №11. – С. 45-71.

<sup>8</sup> Бондарко А.В. Теория значения в системе функциональной грамматики. На материале русского и французского языков. – М.: Наука, 2022. – 364 с.

<sup>9</sup> Горбунов Ю.И. Французская лингвистическая терминология и синергетика // Вестник ВУиТ. – 2023. – №2. – С. 102-110.

<sup>10</sup> Крылов С.А. Трактовка языковой избыточности в лингвосомиотической концепции В. Г. Гака // Acta Linguistica Petropolitana. – Труды института лингвистических исследований. – 2020. – №2. – С. 78-86.

<sup>11</sup> Мурадова Л.А. Владимир Григорьевич Гак – теоретик и практик лексикографии // Преподаватель XXI век. – 2021. – №2. – С. 58-63.

<sup>12</sup> Тарасова А.Н. О значимости вклада профессора В.Г. Гака в лингвистику // Язык и действительность. – научные чтения на кафедре романских языков им. В.Г. Гака. Сборник статей по итогам III-й межд. конф. – 2018. – Том 3. – С. 372-381.

<sup>13</sup> Владимир Григорьевич Гак // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред. А.М. Прохоров. 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969-1978. – 895 с.

<sup>14</sup> Бактиерова М.Б. Изучение французского языка: проблемы и перспективы // Молодой ученый. – 2022. – №11. – С. 689-696.

<sup>15</sup> Каримова Н.Х. Метод проектов – эффективный прием развития способностей у студентов в процессе изучения французского языка // Наука и образование сегодня. – 2019. – №6-2 (41). – С. 81-90.

<sup>16</sup> Маматкасымова В.С. Обучение французскому языку как второму иностранному // European science. – 2021. – №10 (42). – С. 56-64.

<sup>17</sup> Мелибоева З.У. Изучение французского языка как второго иностранного языка в вузе // Наука и образование сегодня. – 2022. – №3 (38). – С. 40-44.

<sup>18</sup> Саримсакова Г.М. Направление сравнительно-сопоставительного языкознания в Узбекистане // Вестник науки. – 2023. – № 3(60). – С. 205-213.

N.Suvanova<sup>19</sup> fransuz tilida buyruq maylining kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini tavsiflash hamda buyruq mayli kategoriyasining falsafiy, mantiqiy va pragmatik pozitsiyalari talqinini taqdim etgan. Ayni paytda, afsuski, o'zbek tilshunosligida professor Vladimir Grigoryevich Gakning lingvistik merosiga bag'ishlangan tizimli, chuqur tadqiqotlar mavjud emas. Ushbu dissertasiya tadqiqoti o'zbek tilshunosligidagi mavjud bo'shliqni to'ldirishga urinishdir.

Dissertasiyaga qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun muallif professor V.G.Gakning ilmiy ishlaridan foydalangan. Xususan, "Fransuz so'zi haqida suhbatlar"<sup>20</sup>, "Tilshunoslikka oid bibliografik ko'rsatkich"<sup>21</sup>, "Fransuz filologiyasiga kirish"<sup>22</sup>, "Rus tilini fransuz tili bilan taqqoslash"<sup>23</sup>, "Fransuz tilining nazariy grammatikasi"<sup>24</sup>, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti: fransuz tili"<sup>25</sup>, "Fransuz imlosi"<sup>26</sup> kabi asarlari shular jumlasidandir. Dissertasiya tadqiqoti turli manbalarga asoslangan bo'lib, bu muallifga o'rganilayotgan mavzu doirasidagi jarayon va hodisalarni tahlil qilish natijalari asosida ishonchli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Ushbu dissertasiya ishida ko'rib chiqilgan muammoning o'rganilganlik darajasi ancha yuqori, chunki u zamonaviy ta'lim va xorijiy tillarni biladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun dolzarb bo'lib, xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish imkoniyatini beradi, shuningdek, hozirga qadar kam o'rganilgan V.G.Gakning konseptual yondashuvlarini hisobga olgan holda O'zbekistonda chet tillarini o'qitishni takomillashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Zamonaviy tilshunoslik va tilshunoslikning kommunikativ jihatlari" mavzusidagi ilmiy ishlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** professor Vladimir Grigoryevich Gak ilmiy merosining lisoniy-kognitiv xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

V.G.Gakning lingvistik tavsiflash va tushunishga doir yondashuvlarini tizimlashtirish orqali olim ilmiy merosining lisoniy, kognitiv rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari ochib berish;

V.G.Gakning umumiy va roman tilshunosligiga qo'shgan hissasini aniqlash;

V.G.Gak fransuz va rus tilida gap tuzilishining semantik, sintaktik qurilishini qiyoslash va muloqot jarayonida gaplarni leksik-grammatik tashkil etish qonuniyatlarini o'rganish;

<sup>19</sup> Суванова Н. Коммуникативно-прагматические особенности императивных паремий (на материале французского языка) // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2023. – № 1. – С. 20-28.

<sup>20</sup> Гак В.Г. Беседы о французском слове: Из сравнительной лексикологии французского и русского языков, 2-е изд. – М.: УРСС, 2004. – 334 с.

<sup>21</sup> Профессор В.Г. Гак. Библиографический указатель по языкознанию. – Самарканд, 1986. – 230 с.

<sup>22</sup> Гак В.Г. Введение во французскую филологию. – М.: Просвещение, 1986. – 184 с.

<sup>23</sup> Гак В.Г. Русский язык в сопоставлении с французским. – М.: Русский язык, 1975. – 278 с.

<sup>24</sup> Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – М.: Добросвет, 2000. – 832 с.

<sup>25</sup> Гак В.Г., Григорьев Б.Б. Теория и практика перевода: Французский язык. – М.: URSS, 2019. – 464 с.

<sup>26</sup> Гак В.Г. Французская орфография. – М.: Учпедгиз, 1956. – 196 с.

V.G.Gakning leksikologiya, frazeologiya, imlo va leksikografiya masalalarining tavsifini ko'rsatish;

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida professor V.G.Gakning ilmiy merosi tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** V.G.Gak merosining lisoniy-kognitiv tahlili tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-etimologik, leksik-semantik, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

V.G.Gakning fransuz orfografiyasida tizimli sinxron, chet tilini o'qitish amaliyotida funksional, fransuz tilida so'z yasashdagi og'zaki-nominal konvertasiyaning tabiatini aniqlashga yordam beruvchi noan'anaviy yondashuvlarini tizimlashtirish orqali olim ilmiy merosining lisoniy, kognitiv rivojlanishi, qiyosiy-struktur xususiyatlari ochib berilgan;

roman tillarining paydo bo'lishidagi *août*, *avgust* > *agosto* > *aost* > [u], [ut] *août* kabi o'xshashligi aniqlanib, roman tillarining ajralish sabablarini esa substrat-mustamlakachi til bilan aralashgan mahalliy til, ijtimoiy lingvistik omillar, ikki tillilik, yangi roman tilining shakllanish omillari, superstrat-asl til tomonidan o'zlashtirilgan, mahalliy bo'lmagan aholining yo'q bo'lib ketgan tili, adstrat-qo'shni davlatlar tillarining o'zaro aralashuvi hodisalari orqali asoslangan;

V.G.Gak fransuz va rus tilida gap tuzilishining semantik, sintaktik va kommunikativ uch darajasi o'rtasidagi munosabatlar qiyoslanib, fransuz tilida gapning sintaktik qurilishi ko'proq kommunikativ daraja bilan, rus tilida esa semantik daraja bilan bog'liq ekanligini isbotlangan va *Quand est-ce que je te vois?*, *Tu viens ce soir*, *Demain, je rentre tard* kabi semantik uchburchakning uch tomonidagi munosabatni-til-tafakkur-ekstralingvistik vaziyatni hisobga olish kerakligi dalillangan;

V.G.Gakning leksikografiya tilning lug'at boyligini tavsiflashda izohli, frazeologik, sinonimik, sheva, terminologik, grammatik, imlo va boshqa lug'atlari asosida asarlari tarjimai leksik-semantik jihatdan ochib berilib, so'zlar badiiy matnda ijodkorning olam haqidagi qarashlarini aks ettirishi *crever la panse à qn*, *avoir la peau courte*, *gros papas* kabi frazeologizmlar bilan dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** V.G.Gakning "Fransuz tili orfografiyasi" darsligida so'zning muhim qismlarini yozishga katta e'tibor berganligi, fleksionlar, ildizlar, qo'shimchalar, so'z yasash va fleksiyadagi harflar va tovushlar o'rtasidagi muvofiqlik misollar yordamida izohlanganligi, fransuz tilini o'rganishni amaliy muammolarini hal qilishga yo'naltirilganligi bilan asoslangan;

V.G.Gakning til o'rgatish metodikasi qiyosiy tipologik tadqiqotlarga asoslangan. Ikki tilni sinxron tarzda qiyosiy o'rganish jarayonida har ikki tildagi ma'nolar aniqlangan, tillarning quyi tizimlaridagi o'xshashlik va farqlar ko'rsatilgan hamda qiyosiy semantik tahlil yordamida bir tilni qiyosiy ifodalash vositalari yordamida qiyosiy-struktur tahlil amalga oshirilgan;

V.G.Gakning ilmiy tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, chet tili o'qituvchisi nafaqat tilni va uning tuzilishini yaxshi bilishi, balki o'sha tilni o'z ona tili bilan

birlashtiradigan yoki aksincha undan ajratib turadigan farqli tomonlarini aniq tasavvur qilishi ahamiyatli ekanligi dalillangan;

V.G.Gak chet tilini o'qitish amaliyotida funksiolan yondashuvdan foydalanish samaradorligini aolab berdi.U grammatik shakllarning semantik va asemantik vazifalari didaktik jihatdan ahamiyatli ekanligi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va tahlil usullarining zamonaviy tilshunoslik nazariyalariga mos kelishi, uslubiy jihatdan asosli ekanligi, tadqiqot materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning mantiqiy taqdim etilganligi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etilganligi, bu vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xulosa va tavsiyalar V.G. Gakning lingvistik merosi O'zbekistonda tillar tahlilini yanada takomillashtirishga qiziqish uyg'otadi va uning zamonaviy tilshunoslikda metodika haqidagi fikri, nazariya qoidalarining dolzarbligini, olim asarlarining ilmiy salohiyatini kengaytirishga katta hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Oliy ta'lim muassasalarining xorijiy filologiya kafedralarida "Umumiy tilshunoslik", "Fransuz tili grammatikasi", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kabi fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, nazariy tilshunoslik bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etishda, qiyosiy tipologiya, orfografiya, leksikologiya, leksikografiya sohalarini bo'yicha o'quv, uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, lug'atlar yaratish, dissertasiya tadqiqotlarini tayyorlash jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Professor Vladimir Grigoryevich Gakning lingvistik merosi:lisoniy-kognitiv tahlildan olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

V.G.Gakning fransuz orfografiyasida tizimli sinxron, chet tilini o'qitish amaliyotida funksional, fransuz tilida so'z yasashdagi og'zaki-nominal konvertasiyaning tabiatini aniqlashga yordam beruvchi noan'anaviy yondashuvlarini tizimlashtirish orqali olim ilmiy merosining lisoniy, kognitiv rivojlanishi, qiyosiy-struktur xususiyatlari ochib berilganligi haqidagi qarashlaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Evropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016-yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUSJPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" loyihasida fransuz va o'zbek tillarida terminlar, frazeologizmlarning lisoniy-kognitiv tahliliga oid materiallardan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 21-yanvardagi 185/02-son ma'lumotnomasi). Natijada xorijiy tillarni o'qitish borasidagi nazariy jihatlarining takomillashuviga erishilgan;

roman tillarining paydo bo'lishidagi août, avgust > agosto > aost > [u], [ut] août kabi o'xshashligi aniqlanib, roman tillarining ajralish sabablarini esa substrat - mustamlakachi til bilan aralashgan mahalliy til, ijtimoiy lingvistik omillar, ikki tillilik, yangi roman tilining shakllanish omillari, superstrat-asl til tomonidan o'zlashtirilgan, mahalliy bo'lmagan aholining yo'q bo'lib ketgan tili, adstrat-qo'shni

davlatlar tillarining o'zaro aralashuvi hodisalari orqali asoslanganligidan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovasion tadqiqot loyiha mazmun-mohiyatini boyitgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 21-yanvardagi 186/02-son ma'lumotnomasi). Natijada professor V.G.Gakning zamonaviy grammatikaning eng yirik nazariyotchisi sifatida hozirgi tilshunoslik fani va til tahlili usullarini rivojlantirishdagi hissasi har tomonlama tahlil qilingan;

V.G.Gak fransuz va rus tilida gap tuzilishining semantik, sintaktik va kommunikativ uch darajasi o'rtasidagi munosabatlar qiyoslanib, fransuz tilida gapning sintaktik qurilishi ko'proq kommunikativ daraja bilan, rus tilida esa semantik daraja bilan bog'liq ekanligini isbotlangan va *Quand est-ce que je te vois?, Tu viens ce soir, Demain, je rentre tard* kabi semantik uchburchakning uch tomonidagi munosabatni-til-tafakkur-ekstralingvistik vaziyatni hisobga olish kerakligi asosida innovasion ilmiy loyiha asosida ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalarni yaratishga yangicha yondashuv sifatida mazkur ilmiy tadqiqot ishini tahlil qilish natijalari o'qituvchilarning til va muloqot ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, o'quv jarayonini mustahkamlash va barqarorlashtirishda 2022-2023 va 2024-yillarda "O'zbekiston – 2030 strategiyasi – baxtli va farovon kelajak kafolatidir", "Mahallalar obod va jinoyatchilikdan holi hududdir" kabi respublika grantlari, bundan tashqari, xalqaro USAID hamda Xelsenki Fondi tomonidan e'lon qilingan grantlarni bajarishda ham dissertasiya ilmiy natijalaridan (xususan, lisoniy va uslubiy ta'limotining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari, maxsus seminarlar tashkil etish, matn lingvistikasi, nutq va sosiopragmatika, lug'atlar tuzish, ilmiy tadqiqot olib borish v.h) metodologik manba sifatida foydalanilgan. (Barqaror rivojlanish maqsadlari ijtimoiy tashabbuslar markazining 2024-yil 4-dekabrda 148-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliyotga qo'llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, monografiyalarning hamda terminologik tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

V.G.Gakning leksikografiya tilning lug'at boyligini tavsiflashda izohli, frazeologik, sinonimik, sheva, terminologik, grammatik, imlo va boshqa lug'atlari asosida asarlari tarjimasi leksik-semantik jihatdan ochib berilib, so'zlar badiiy matnda ijodkorning olam haqidagi qarashlarini aks ettirishi *crever la panse à qn, avoir la peau courte, gros papas* kabi frazeologizmlar bilan dalillanganligi asosida fransuz va o'zbek tillarida argotik so'zlar va frazeologizmlarni semantik, lingvomadaniy xususiyatlarining qiyosiy-chog'ishtirma tasniflari va qiyoslanayotgan tillarda ularning o'xshash va farqli jihatlariga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 22-yanvar kuni efirga uzatilgan "Assalom Samarqand" ko'rsatuvining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 6-dekabrda № 01-07/412-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega tavsiyalar haqida ma'lumotnoma berilgan va keyingi ko'rsatuvlarda ham foydalanish ko'zda tutilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari 1ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan, tadqiqot ob'ekti, predmeti va usullari ko'rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**V.G.Gakning lingvistik ta'limotining xususiyatlari**" deb nomlangan dastlabki bobida V.G.Gakning hayoti va ijodi, uning asarlari, umumiy roman tilshunosligining xususiyatlari o'rganilgan; leksikologiya, frazeologiya va leksikografiya masalalari; V.G.Gak asarlarida imlo, stilistika va til o'qitish metodikasi masalalari ko'rib chiqilgan va tahlili qilingan.

"*V. G. Gakning lingvistik ta'limotining xususiyatlari*" deb nomlangan birinchi faslda olimning hayoti haqida qisqacha ma'lumot berilib, ilmiy hamjamiyatga kirib kelishi batafsil yoritilgan.

Vladimir Grigoryevich Gak (1924-2004) taniqli, iqtidorli tilshunos olim, fransuz va rus tillarini qiyosiy tadqiq qilish maktabining asoschisi bo'lib, tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlariga oid 350 dan ortiq ilmiy asarlar muallifidir.

Shunday qilib, mashhur rus tilshunosi V.G. Gak hayoti va ijodini o'rganar ekanmiz, u filologiya fanlari doktori (1968), Moskva davlat pedagogika universiteti professori, Rossiya Federasiyasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1997) ekanligiga guvoh bo'ldik. Olim yuqori darajadagi lingvistik, pedagogik, tarjima va tadqiqotchilik malakasiga, g'ayrioddiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega edi, o'zining chuqur bilimlarini baham ko'rishga, qiyin vaziyatlarda odamlarga yordam berishga tayyor, xushmuomala, bir so'z bilan aytganda, ham olim va ham pedagog-o'qituvchi edi.

Tilshunoslikda boshqa yo'nalishlar qatori kognitiv tilshunoslik sohasi ham so'nggi yillarda muayyan yutuqlarga erishdi, bu borada bir qancha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari bajarildi. Kognitiv so'zining lug'aviy ma'nosi (lotincha: cognitio "idrok, tasavvur qilish, tahlil") xarakter, tarbiya, kuzatish va shaxsning atrofda dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar tizimidir. Demak, yuqoridagi qoidaga asoslansak, nutqiy sharoitda shaxs o'z oldiga ma'lum maqsadlar qo'yadi, muayyan bir vaziyatda qanday harakat qilish kerakligi haqida qarorlar

qabul qiladi, kognitiv dissonansdan (shaxsning ongida qarama-qarshi tushunchalar) qochishga intiladi. Kognitiv tizimning asosi — fikrlash, ong, xotira va tilning o‘zaro ta’siri; bu tizimning tashuvchisi esa shubhasiz, inson miyasidir.

Tillar orasida yuqorida qayd etilgan uch tilga muvofiq tarzda ular quyidagicha tasnif qilinadi: 1) tillar kelib chiqishining umumiylikini aks ettiruvchi genetik tasnif (bunda, umumiy manba (bobo til)ga borib taqaluvchi tillar ajratiladi); 2) tillarning dastlabki tarqalish o‘rni bilan bog‘liq geografik tasnif (masalan, o‘z ichiga bir necha genetik oilalarni birlashtirgan Afrika tillari haqida so‘z yuritiladi) 3) tillarning struktur xususiyatlariga asoslanuvchi tipologik tasnif (bunda sintetik va analitik tillar o‘zaro ajratiladi).

Bu tasniflar bir-birini to‘ldirishi va o‘zaro kesishishi ham mumkin. Masalan, til oilalari – genetik guruhlarining katta birlashmalari ba’zan geografik belgisiga qarab ham (hind-yevropa tillari), guruhlar ichida bo‘linishiga qarab ham nomlanadi (sharqiy slavyan, g‘arbiy slavyan va janubiy slavyan tillari).

“V.G. Gak asarlarida leksikologiya, frazeologiya va leksikografiya masalalari” deb nomlangan birinchi bobning ikkinchi faslida olimning tilshunoslikning leksikologiya, frazeologiya va leksikografiya sohalaridagi xizmatlariga e’tibor qaratilgan.

Olimning “Katta Sovet Ensiklopediyasi” uchun yozgan “Leksikografiya” nomli maqolasida lug‘atshunoslikning shakllanish va rivojlanish bosqichlari bayon qilinib, turli xalqlar o‘rtasidagi uch o‘xshash davr ko‘rsatilgan:

1) lug‘atgacha bo‘lgan davr – tushunarsiz so‘zlarni izohlashga qaratilgan leksikografiya;

2) ilk lug‘at davri – ko‘pchilik xalqlar orasida so‘zlashuv nutqidan farq qiladigan adabiy tilni o‘rganish maqsad qilingan davr;

3) rivojlangan leksikografiya – milliy adabiy tillarni shakllantirish va takomillashtirish davri.

V.G.Gakning fikriga ko‘ra, leksikografiya «sanoat» xarakteriga ega, chunki leksikografik markazlar va institutlar ochilib, «ishlarni mexanizatsiyalash» deb ataladigan tamoyilga o‘tish harakatlari boshlandi<sup>27</sup>.

V.G. Gak o‘z maqolalarida ma’naviy madaniyatni rivojlantirishda lug‘atlarning muhim rolini ta’kidlab, ular ma’lum bir tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo‘lgan bilimlarni mustahkamlashini qayd etadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, lug‘atlar katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, ikki muhim vazifani bajaradi: *informatsion* (to‘plangan bilimlarga tezda kirish imkoniyati mavjud) va *me’yoriy* (so‘zlarning ma’nolari va qo‘llanilishi qayd etilgan, bu ularning takomillashishiga va tilning umumiy birlashuviga olib keladigan aloqa vositalaridir)<sup>28</sup>.

V.G. Gak lug‘atshunoslikda ilk marta amaliyotchi leksikograf sifatida 1963-yilda Y.I.Retzker muharrirligida tuzilgan, 35000ga yaqin frazeologik birliklar tarjima qilingan fransuzcha-ruscha frazeologik lug‘at yaratishda ishtirok etgan edi<sup>29</sup>.

<sup>27</sup> Gak V.G. Лексикография // Лингвистический энциклопедический словарь / В.Г. Гак. – М.: Советская Энциклопедия, 1990. – С. 258.

<sup>28</sup> Gak V.G. Словарь // Большая Советская Энциклопедия. 3-е изд. – Т.23. – 1976. – С. 572.

<sup>29</sup> Французско-русский словарь: около 35000 фразеологических единиц / под ред. Я.И. Ретцера; сост.: В.Г. Гак, И.А. Кунина, И.П. Лалаев [и др.]. – М.: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1963. – 1111 с.

1991-yilda V.G. Gak J. Triomf bilan birgalikda zamonaviy fransuz tilida 37000ga yaqin soʻzni oʻz ichiga olgan “Fransuzcha-ruscha faol tipli lugʻat”ning muharriri boʻldi<sup>30</sup>. Mazkur lugʻat rus tilini oʻrganadigan fransuzlarga moʻljallangan boʻlsa-da, fransuz tilini oʻrganadigan rusiyzabon oʻquvchilar uchun ham juda foydali. 1992-yilda V.G.Gak rahbarligida maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan fransuzcha-ruscha va ruscha-fransuzcha lugʻat nashr etildi<sup>31</sup>. Ushbu nashr darslik koʻrinishida boʻlib, uning yordamida fransuz tilini oʻrganuvchi talabalar lugʻat lugʻaviy birliklari grammatik va soʻz yasash xususiyatlarini hamda ular oʻrtasidagi mavjud tizimli aloqalarni yaxshiroq tushunishlari mumkin.

1994-yilda K.A.Ganshina V.G.Gak bilan hamkorlikda 70000ga yaqin soʻzni oʻz ichiga olgan yangi fransuzcha-ruscha lugʻatni nashr etdi<sup>32</sup>. Lugʻat zamonaviy fransuz leksikografik manbalari maʼlumotlari asosida tuzilgan boʻlib, atama va frazeologik birliklarni oʻz ichiga oladi. Olimning soʻnggi leksikografik asari 2005-yilda 50 000 frazeologik birlikdan iborat katta fransuzcha-ruscha frazeologik lugʻat edi<sup>33</sup>. Ushbu lugʻat yuqorida qayd etilgan fransuzcha-ruscha frazeologik lugʻat asosida yaratilgan boʻlib, olimning hayoti davomida nashr etilmagan.

2005-yilgi yangi yirik fransuzcha-ruscha frazeologik lugʻatda 1963-yildagi lugʻat bilan solishtirganda juda koʻp yangi maʼlumotlar keltirilgan. Xususan, noidiomatik iboralar soni sezilarli darajada kamayib, yangi lugʻatdagi frazeologik birliklar (FB)soni 30-100% ga va illyustrativ misollar soni 80-125% (har bir harf uchun har xil)ga koʻpaydi. Masalan, R harfi bilan bogʻliq maʼlumotlarga eʼtibor qilsak (4-jadval):

**4-jadval**

**1963-va 2005-yillardagi lugʻatlarda R harfi uchun maʼlumotlarning qiyosiy jadvali<sup>34</sup>**

“Fransuzcha-ruscha frazeologik lugʻat” (1963)			“Yangi katta fransuzcha-ruscha frazeologik lugʻat” (2005)		
FB soni	Ilyustrativ misollar soni	FB soniga misollarning raqam nisbati	FB soni variantlari bilan	illyustrativ misollar soni	FB soniga misollarning raqam nisbati
749	263	35%	1393 (+86%)	589 (+124%)	42%

Lugʻat tarkibidagi asosiy oʻzgarishlar tarjima birliklari bilan birga ularning ichida emas, balki lugʻat yozuvlari oxirida keltirilgan havolalar tizimlari bilan bogʻliq edi. Masalan, mazmuni va tuzilishiga eʼtibor bergan holda ushbu ikki lugʻat yozuvini qiyosiy jadval shaklida koʻrib chiqamiz (5-jadval).

<sup>30</sup> Французско-русский словарь активного типа / Под ред. В. Гака, Ж. Триомфа. – М.: Русский язык, 1991. – 1056 с.

<sup>31</sup> Французско-русский и русско-французский словарь: пособие для учащихся / Под ред. В. Гака. – М.: Просвещение, 1992. – 448 с.

<sup>32</sup> Гак В.Г., Ганшиной К.А. Новый французско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1994. – 1195 с.

<sup>33</sup> Гак В.Г. Новый Большой французско-русский фразеологический словарь (НБФРФС). – М.: Русский язык – Медиа, 2015. – 1624 с.

<sup>34</sup> Dissertatsiya muallifi tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

FRFL (1963) va YKFRFL (2005) da keltirilgan "PALETOT" lug'at yozuvlarining qiyosiy jadvali <sup>35</sup>

fransuzcha-ruscha frazeologik lug'at (1963 y.)	yangi katta fransuzcha-ruscha frazeologik lug'at (2005 y.)
PALETOT m	
130. paletot de sapin (dernier paletot) <i>apzo</i> tobut, machine a`ramer (yoki a`secouer) le paletot 131. bondir (yoki sauter) sur le paletot <i>apzo</i> kimningdir orqasidan urmoq. 132. tomber sur le paletot <i>apzo</i> a) cho`zilish, orqaga, orqaga yiqilish; b) urish, musht bilan hujum qilish.	paletot de sapin (dernier paletot, paletot sans manches) <i>apzo</i> tobut, bondir (yoki sauter) sur le paletot <i>apzo</i> kimningdir orqasidan urmoq; mettre qch sur le paletot a`qn . kimgadir birovga, biror narsani "og`darish" to`nkash, prendre (yoki se mettre) qch sur le paletot <i>apzo</i> nimanidir o`ziga olmoq, repasser (yoki secouer) le paletot a`qn kimnidir shishirmoq; C'est ça, rentrez dans votre bijouterie, et, si vous n'avez pas retire l'ecriteau en cinq minutes, c'est moi viendrai vous secouer le paletot. M. Ayme, Lucienne et le Boucher. / Вот-вот, возвращайтесь-ка в свой ювелирный магазин, и, если через пять минут вы не снимете объявление, уж я вам врежу. Во`пти, zargarlik do`koningizga kiring, agar besh daqiqa ichida belgini olib tashlamagan bo`lsangiz, kelib boshingizga musht tushuraman. M. Ayme, Lyusen va qassob tomber sur le paletot <i>apzo</i> : a)cho`zilish, orqaga, orqaga yiqilish; b) urish, musht bilan hujum qilish a) Ils me sont tombes en traites sur le paletot et c'est la que j'ai encaisse un marron. R.Dorgeles / Они предательски набросились на меня, и мне здорово попало. Ular menga xoinlarcha tashlanishdi va men zo`r qilib tushdim, machine a`secouer le paletot; mettre la main sur le paletot a`qn.

Qiyosiy tahlil yangi katta ruscha-fransuzcha frazeologik lug'at maqolasi fransuzcha ruscha frazeologik lug'at maqolasiga qaraganda ancha to`liqroq ekanini ko`rsatadi, ya'ni u bitta ismli ibora va ikkita fe'l iborani qo`shadi. Bundan tashqari, maqola ikkita yorqin misol bilan boyitilgan. Frazeologik lug'at tuzishda eng qiyin masala frazeologik birliklarni tanlashdir. "Yangi katta fransuzcha-ruscha frazeologik lug'at"da mualliflar nufuzli fransuz lug'atlarida mavjud bo`lgan yoki kamida ikkita fransuz yozuvchisining badiiy matnlarida qo`llangan frazeologik birliklarni o`z ichiga olgan.

V.G. Gakning so`zlariga ko`ra, frazeologik birlik, har qanday boshqa belgilarga o`xshab, uch jihati bilan tavsiflanadi: shakl, mazmun va vazifa. Frazeologik birliklar shakl jihatdan ko`p komponentli—ular tarkibida bir nechta so`z bor; mazmuni jihatidan ular iboralarga idiomatik xususiyatlarni berish uchun komponentlarni qayta ko`rib chiqish bilan tavsiflanadi. Frazeologik birliklar o`z faoliyati jihatidan jamiyatning turli qatlamlarida keng qo`llanilishi va barqarorligi bilan ajralib turadi.

Shu munosabat bilan lug'at tuzish jarayonida ana shu uch jihatni ham hisobga olish zarur. Xususan, iboralarni murakkab so`zlardan farqlash mezonlarini aniqlash (strukturaviy savollar) yoki iborada tasvir mavjudligini/yo`qligini aniqlash (semantik savollar). Tanlanishning funksional jihatida frazeologiyani o`zagini tashkil etuvchi va lug'at tarkibiga kiradigan, ko`p qo`llaniladigan frazeologik birliklarga ustuvorlik beriladi.

<sup>35</sup> Dissertatsiya muallifi tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

Yangi katta fransuzcha-ruscha frazeologik lug'atda 10 000 ga yaqin iqtibos va illyustratsiyalar mavjud bo'lib, ular asosan ommaviy axborot vositalari matnlaridan hamda XVII-XX asrlar badiiy adabiyotining turli janrlaridan olingan. Lug'at ikki turdagi illyustratsiya misollarini o'z ichiga oladi:

1) Qisqa iboralar. Ikki til sintaksisidagi nomuvofiqlik tufayli so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydigan fransuz tiliga xos iborani rus tiliga tarjima qilish usullari. Xususan, avoir la bloblote: j'ai la bloblote a) isitmam ko'tarildi, titrayapman, varaja qilayapman; b) men qo'rqaman; yoki avoir la pomme de canne fêlée "yorilgan"; il a la pomme de canne fêlée "tomi ketgan";

2) Fransuzcha matnlardan iqtiboslar. Bu tilda haqiqatda ma'lum bir shaklda mavjud bo'lgan iboralarni ko'rsatadi, shu bilan birga, bir qator misollar frazeologik birlikning turli vaziyatlarda va til rivojlanishining turli davrlarida qo'llanilish imkonini beradi. *Mettre hors de pair* frazeologik birligining ishlashiga oid misollarni Stendal va M. Prust badiiy asarlaridan olingan iqtiboslar bilan tahlil qilamiz: *Fabrice fut reçu par le prince deux heures après son arrivée ... Cette faveur mettait Fabrice hors de pair. Stendhal, la Chartreuse de Parme, 275- bet / Fabritsioni kelganidan ikki soat o'tib shahzoda uni qabul qildi... Bu iltifot Fabritsioni darrov alohida mavqega solib qo'ydi. Stendhal, Parma ibodatxonasi /..... un ouvrage relatif au sentiment de l'infini sur la rive occidentale du lac Victoria-Nyanza et cette année un opuscule moins important, mais conduit d'une plume alerte... qui l'ont mis tout a fait hors de pair. M.Proust, A l'ombre des jeunes filles en fleurs /.. Viktoriya Nyanza ko'lining G'arbiy qirg'og'ida paydo bo'ladigan cheksizlik hissi haqida kitob va bu yil - unchalik ahamiyatli bo'lmagan asar, ammo aql bilan, ba'zida hatto G'arazsiz yozilgan - bu ikki asar uning nomini yaratdi. M.Prust, Gullagan yosh qizlar soyasida /*

V.G. Gakning rus va fransuz tillarini mukammal bilishi, lingvistik material bilan ishlashda sinchkovlik, puxtalik va tafsilotlarga e'tibor berishi sababli ana shunday yirik, noyob va ahamiyatli leksikografik asar dunyoga keldi.

*Birinchi bobning so'nggi faslida V.G.Gak asarlarida imlo, stilistika va til o'qitish metodikasi masalalari tahlil qilingan.*

Til o'qitish metodikasi ham nazariy, ham amaliy qisqa vaqt ichida chet tilini o'quvchiga oson o'rgatish va uni amalda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari bilan shug'ullanadi. V.G. Gak fransuz tilini qulay o'zlashtirish imkonini beradigan o'quv materiallarini ishlab chiqishda yuksak natijalarga erishdi, uning tomonidan yaratilgan metodik tavsiyalar, o'quv materiallari bugungi kunda ham pedagogik jarayonlarda qo'llanilmoqda. Olim boshqa barcha til kompetensiyalaridan qat'i nazar, chet tilida o'qish qobiliyati alohida ahamiyatga ega, deb hisoblagan. U fransuz tilidagi o'rtacha qiyinchilik darajasidagi matnlarni o'quvchiga o'zi qisqa vaqt ichida qanday qilib o'qishni o'rgatish borasida izlanishlar olib bordi hamda ilgari faqat tarjimalari orqali ma'lum bo'lgan badiiy asarlarni asl nusxada o'qish imkonini beruvchi pedagogik usullarni taklif etdi. Xususan, Gak tomonidan L.A. Murodova bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Fransuz tilida o'qishni o'rganish. Qisqa dasturlashtirilgan qo'llanma"<sup>36</sup>si aynan fransuz tilini

<sup>36</sup> Гак В.Г., Мурадова Л.А. Учитесь читать по-французски. Краткий программированный самоучитель. – М.: Editorial URSS, 2002. – 317 с.

o'rgatishning zamonaviy ta'lim usullarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish mezonlarini o'quvchining mustaqil o'zlashtirishi uchun mo'ljallangan. Ushbu qo'llanma fransuz tilini o'rganuvchi o'quvchiga bir necha hafta ichida ortiqcha kuch sarflamasdan, davriy nashrlardan o'rtacha qiyinchilikdagi fransuzcha matnni o'qish va tushunishni o'rganish imkonini beradi. Qo'llanmada dasturlashtirilgan o'qitish elementlari va maxsus ishlab chiqilgan original metodologiya mavjud, u asosda boshqa darsliklar va lug'atlarga murojaat qilmasdan, fransuz grammatikasini yetarlicha to'liq o'rganish va 2000 dan ortiq so'zlarni yodlash mumkin. Bu so'zlashgich materiallarini o'zlashtirish har qanday fransuz matnlarini lug'at bilan o'qishga o'tish imkoniyatini beradi. Bu maktab o'quvchilari, abituriyentlar, fransuz tili bo'yicha bilimlarini yangilamoqchi bo'lgan talabalar, shuningdek, fransuz tilini mustaqil ravishda, kurslarda, intensiv o'quv guruhlarida va ikkinchi til guruhlarida o'rganayotganlar uchun mo'ljallangan. Ushbu qo'llanma Rossiya Fanlar akademiyasining o'quv va ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, jurnallar va asarlar to'plamlarini nashr etishga ixtisoslashgan URSS nashriyot guruhi tomonidan bir necha marta nashr etilgan. Kitob dastlab "Fransuz gazetasini o'qishni o'rganing" deb nomlanib, unda chuqur ilmiy va uslubiy yondashuvlar va foydali o'quv materiallari mavjud edi.

V.G.Gak fransuz tilini o'qitish metodikasi, jumladan, o'rta va oliy ta'limda o'qitishning eng qiyin yo'nalishlaridan biri sifatida imlo masalalariga katta e'tibor qaratdi. Uning "Fransuzcha imlo" kitobi imloni o'zlashtirishda an'anaviy mexanik yondashuvdan voz kechishga imkon beradi, chunki olim imloni o'rganishda bir qator yangicha usul va metodik tavsiyalarni taklif etadi. Imlo normalari va qoidalarini tushuntirish uchun V.G.Gak asosan tarixga murojaat qildi. Darslik amaliy-uslubiy jihatdan zamonaviy fransuz tili imlosini o'zlashtirishga mo'ljallangan. "Fransuzcha imlo" darsligida so'zning muhim qismlarini yozishga katta e'tibor berilganligi, fleksiyonlar, ildizlar, qo'shimchalar, prefikslar; so'z yasash va fleksiyadagi harflar va tovushlar o'rtasidagi muvofiqlik misollar yordamida izohlanganligi, til o'rganishni amaliy muammolarni hal qilishga yo'naltirilganligi qo'llanmaning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi<sup>37</sup>.

V.G.Gakning til o'rgatish metodikasi qiyosiy tipologik tadqiqotlarga asoslangan. Ya'ni ikki tilni sinxron tarzda qiyosiy o'rganish jarayonida har ikki tildagi ma'nolar aniqlanadi, tillarning quyi tizimlaridagi o'xshashlik va farqlar ko'rsatiladi va qiyosiy semantik tahlil yordamida bir tilni qiyosiy ifodalash vositalari yordamida qiyosiy-struktur tahlil amalga oshiriladi. Birinchi holda, ikki tilning tarkibiy xususiyatlari ochiladi, ikkinchisida, til bilish quroli sifatida o'rganiladi. Semantik tadqiqotlarda qiyoslangan tillarning ma'no nomenklaturasini aniqlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunday holda, quyidagi holatlar mumkin: 1) lingvistik ma'nolar har ikki tilda aniqlanadi va semantik doirada mos keladi; 2) lisoniy ma'nolar har ikki tilda ham aniqlanadi, lekin semantik ko'lami bo'yicha bir-biriga to'g'ri kelmaydi; 3) lisoniy ma'nolar faqat bir tilda uchraydi.

Shunday qilib, imlo, stilistika va til o'rgatish usullari masalalari V.G.Gakning ko'plab asarlarida asosan qiyosiy tilshunoslik doirasida fransuz va rus tillari misollaridan foydalangan holda muhokama qilinadi.

<sup>37</sup> Гак В.Г. Французская орфография. – М.: Добросвет, 2005. – 288 с.

Dissertatsiyaning “Professor V.G.Gak zamonaviy grammatikani yetuk nazariyotchisi” ikkinchi bobida V.G. Gakning ilmiy ishlarida zamonaviy fransuz tilida jummalarni ajratish tushunchasi, fransuz tilining urg‘u vositalarini o‘z ichiga olgan grammatik qonuniyatlari bilan bo‘laklangan gaplarning sintaktik, intonatsion va semantik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Bobning dastlabki fasli “V.G.Gakning fransuz tili grammatikasiga oid tadqiqotlari” deb nomlangan. Unda gap bo‘laklarini aniqlash vositalari tahlil qilingan, ajratilgan gaplardagi sintaktik tuzilish, intonatsiya va semantik mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq etilgan. V.G.Gak fransuz tilining so‘z yasash vositalari tizimidagi og‘zaki-nominal konversiyaning tabiati va o‘rnini aniqlashga noan’anaviy yondashuvni ishlab chiqdi va nol qo‘shimchasi bilan so‘z yasash muammosini qayta tahlil qiladi. Professor, shuningdek, so‘z tartibi qadimgi fransuz tilidagi jumla komponentlarining xilma-xilligidan klassik davrda odatiy holga aylangan qat’iy so‘z tartibiga o‘zgarganligini ko‘rsatdi. V.G.Gak grammatik hodisalarni o‘rganishga funksional yondashuv muallifi bo‘ldi. Funktsiyalar orasidagi farq grammatikaning ko‘plab faktlarini aniqlashtirishga imkon beradi va chet tilini o‘qitish amaliyotida juda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

